



## O'RTA VA OLIY TA'LIMDA FORMANING AHAMIYATI

*Shavkatova Shaxrizoda*

*Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar Nematullayevna*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada bugungi kundagi talab qilinayotgan asosiy mavzulardan biri — forma kiyishning yaxshi va yomon tomonlari hamda bu mavzu bo'yicha boshqa davlatlarning tartib-intizomi haqida bir qancha ma'lumotlar bor.*

**Kalit so'zlar :** *kiyinish tartibi, o'rta maktab, oliygohlar, oiladagi sharoit, Kanadadagi tartib.*

Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda hukumat hech bir narsani e'tiborsiz qoldirayotgani yo'q. Bu masala xoh siyosat, xoh iqtisod, xoh ta'lim mavzusida bo'lishidan qat'iy nazar, barchasi uchun yechim topib kelinmoqda. Biz ta'lim sohasidagi muammo yoxud qat'iy qarorlardan biri sifatida maktab yoki boshqa oliy ta'limda talab qilinayotgan forma masalasini aytishimiz mumkin. Xo'sh, shunday vaqtda maktab yoki boshqa ta'lim muassasalarida formaning qanday ahamiyati bor degan savol yuzaga kelsa ajab emas. Ha, chindan ham bugungi kunda barcha sohalarda forma masalasi 1-o'rinda turadi va qonun oldida hamma bir. Siz xoh oddiy o'qituvchi, shifokor yoki eng taniqli professor olim bo'lsangiz ham, o'z kasbingizning ko'rki va husni bo'lgan formangizni kiyishga majbursiz. Lekin, Tanganing ikki tomoni bor, deyilganidek, forma kiyishning ham yaxshi va yomon tomonlari yetarlicha. Biz bilamizki, forma kiyish eng avval maktab deb atalmish muqaddas dargohdan boshlanadi. Va bizda ba'zi turdagi ota-onalar yoki umuman katta yoshdagilar o'quvchilarning maktab formasini kiyishi joizmi, nega, nima uchun kerak degan savollar bilan maktab ma'muriyatiga murojaat qilishadi. Shunday ekan, ayni damda maktab formasining ijobiy va salbiy tomonlari haqida fikr yuritamiz. Xo'sh, maktab



formasining afzalliklari va kamchiliklari qanday? Eng avvalo, forma kiygan o'quvchilar o'z shaxsi va maktab ramzi hisoblanadi. Ya'ni, maktab formasi bolaga o'quvchi ekanligini anglatishi bilan birga, unga ta'lim olishda tenglikni, sharafni va ma'suliyatni yuklaydi. Ayniqsa, tarbiyada juda zarur omil hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekistonda maktab formasiga qo'yilgan talablar va bir qancha qonunlar mavjud. Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarning kiyim boshiga doir talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi 666-sonli qarori bilan davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun zamonaviy yagona maktab formasining shakllarini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. Shuningdek, 2022-2025-o'quv yilidan boshlab, maktablarda o'quvchilar tasdiqlangan shakldagi maktab formasida kelishlari majburiy etib belgilangan. Hozirda ushbu forma masalasi ixtiyoriy amalda, deb yozadi jurnalistlar o'zlarining ko'rgazma va maqolalarida. Shunday ekan, maktab o'quvchilarini yetarli va sifatli forma bilan ta'minlashda eng avval farzandlarning ota-onalari, keyingi o'rinda maktab ma'muriyati ma'sul hisoblanadi. Biz bilamizki, ba'zilarimiz uchun oddiydek tuyuladi, maktab formasi ham yetarlicha mablag' va sarf-xarajat talab qiladi. Hamma ham bir xil emas, zero, besh qo'limiz teng bo'lmagani kabi. Ota-onalar farzandlarining maktab formalari uchun anchagina pul sarflashadi. Ammo, hammaning ham cho'ntagi buni birday ko'tarolmaydi. Hozirda ko'plab ota-onalar farzandim zamondan orqada qolmasin, asosan kiyinish mavzusida deb, farzandlariga deyarli har oyda yangi kiyimlar, zamonaviy formalar olib berishadi. Chunki, ularning forma olish uchun yetarli mablag'i mavjud. Ammo, boshqalarchi? Kam ta'minlangan oilalarning farzandlari nima qiladi? Mana shu kabi voqea-hodisalarning oldini olish uchun hukumat maktablarda hamma uchun birday bir xil ko'rinishda forma joriy qilishlari kerak, deb o'ylayman. Shundagina tarozining ikkala pallasini ham tenglashadi. Boshqa chet mamlakatlarning maktabda kiyinishi bo'yicha tartib qoidalari bizning mamlakatimiznikidan tubdan farq qiladi. Masalan, Kanada, biz bilamizki, Kanada bugungi kunda ilm-fan sohasidagi eng oldi mamlakatlardan biri



sanaladi va bu davlatning maktabdagi tartib-intizomi umuman o'zgacha. Bu davlat qonun qoidalariga ko'ra, o'quvchilar maktabga o'zlariga qulay va o'zlari xohlagan kiyimni kiyib kelishlari mumkin. Forma majburiy emas. Chunki, ba'zi bolalar formada o'zlarini noqulay his qilishlari mumkin. Bundan tashqari, Kanada maktablarida asosiy maqsad va e'tibor ta'lim tizimiga qaratilgan, kiyinishga emas. Bunga qo'shimcha sifatida, Kanada mamlakatida bolalar 1-sinfdan 4-sinfgacha faqat ta'lim, tarbiya, kattalar va kichiklar bilan muloqot qilish, o'zini tuta bilish va boshqa shu kabi sa'y-harakatlarni o'rganishlari va bu davrda hech qanday kundalik va baholaydigan tizimlar mavjud bo'lmaganini aytib o'tishimiz kerak. Hamda bu vaqt oralig'ida ko'plab bolalar o'rtasida uchraydigan raqobat tuyg'usi bo'lmaydi. Bola o'zining xohish-istaklari bilan yashaydi. Shu va boshqa shu kabi intizomlar sababli Kanada davlati rivojlanishida kundan-kunga oshmoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hamma narsaning o'z me'yori bor. Shunday ekan, maktab tomonidan talab qilinayotgan formalarni turli xil masala va muammolarsiz o'z vaqtida amal qilgan holda, boshqa sohalarda ham yanada ko'proq rivojlanishiga harakat qilishimiz kerak. Zero, O'zbekistonning yagona dardi forma kiyish emas.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Qayumova , M.N.A'zamova. Maktab pedagogikasi. Darslik. Toshkent-2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Toshkent. "O'zbekiston nashriyoti" 2021-yil
3. Mamatov. T Oliy ta'lim : nazariy va amaliy masalalar 2018-yil.
4. R.B. "Ta'limda innovatsiyalar va metodologiyalar". 2021-yil
5. Xamrayev. Sh. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti " 2019-yil.



6. Djalilov. S. "Ta'limda visual yordam" 2020-yil.
7. Sodikova.N."Oliy ta'limda yangi o'quv metodlari ". 2022-yil
- 8.Sirojiddinov F.(2018)"O'rta ta'limda frozensiya va o'qituvchilar roli.
- 9.Abdullaeva N. (2021)" O'quv formalarini diversifikatsiya qilgan holda ta'lim sifatini oshirish. Toshkent. Pedagogika.
10. Ziyodov A.(2022)"Psixologik tayyorgarlik va ta'lim jarayoni ".Toshkent.
- 11.Shodmonova D. (2019)"O'rta va Oliy ta'limda metodik yondashuvlar ",Tashkent:Fan va texnologiya.
12. Yusupov M. (2022)Ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv"Tashkent . Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
- 13.Azizov S.(2016)"Oliy ta'limda o'quv formalarining ahamiyati. Tashkent. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
- 14.Qosimova M.(2021)"Ta'lim jarayonida o'qitish formalarining samaradorligi.
- 15.Rakhmonov B.(2018)"o'qitish metodlari va o'quv formalarining o'zaro bog'liqligi . O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim institutlari.